

O'zbekistonda pedagog xodimlar maoshi oshiriladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Akademik litseylar va professional ta'lif tizimi muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish va ularning mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni loyihasi [e'lon qilindi](#).

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligining:

Akademik litseylar va professional ta'lif tizimidagi ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari hamda o'quv yordamchi xodimlarining lavozim maoshlarini:

- a) 2020 yil 1 yanvardan - 2 baravarga oshirish;
- b) 2020 yil 1 sentyabrdan boshlab - 1,2 baravarga oshirish;
- v) 2020 yil 1 yanvardan yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga ko'ra texnik, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa xodimlarning lavozim maoshlarini aniqlashda tarif koeffitsientlarini bir yarim baravar miqdorida qo'llash;
- g) Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruva hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining professional ta'lifni innovatsion rivojlantirish tuzilmasiga tegishli boshqarma va bo'limlarida (malaka oshirish va qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi boshqarma va bo'limlar bundan mustasno) faoliyat ko'rsatayotgan uslubchi va dasturchi-muhandis lavozimlari negizida bosh mutaxassis va yetakchi mutaxassis lavozimlarni joriy etish, shuningdek, boshqarma (bo'lim) boshliqlari, bosh va yetakchi mutaxassislarning lavozim maoshlarini mos ravishda oliy ta'lif muassasasi dotsenti, katta o'qituvchisi va assistenti bazaviy lavozim maoshlariga tenglashtirish;

Institutning qo'shimcha ta'lif xizmatlarini ko'rsatish asosida ishlab topgan byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan Institut xodimlari lavozim maoshlariga 200 foizgacha ustama haq to'lash to'g'risidagi takliflariga rozilik berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birgalikda:

- 2020 yil 1 yanvardan Ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari hamda texnik, xizmat ko'rsatuvchi, o'quv yordamchi va boshqa xodimlarining lavozim maoshlarini belgilashda, mehnatga haq to'lashning takomillashtirilgan mexanizmini joriy etadi;
- 2020/2021 o'quv yilidan boshlab Ta'lif muassasalarining kunduzgi o'qish bo'yicha ta'lif yo'naliishlari, kasblar va mutaxassisliklari qarab bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni nisbatining cheklangan normativlarini 1:10,0 nisbatida belgilaydi.

Belgilanishicha, ta'lif yo'naliishlari, kasblar va mutaxassisliklari bo'yicha bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni nisbatining normativlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

2020 yil 1 yanvardan boshlab:

- a) Ta'lif muassasalari xodimlariga ustamalar belgilash, mukofotlar to'lash va moddiy yordam ko'rsatish yo'li bilan ularni rag'batlantirish maqsadida, ta'lif muassasalarida byudjet tashkilotlari uchun qo'llaniladigan xodimlarni moddiy rag'batlantirish maxsus fondi tashkil etiladi.
- b) Ta'lif muassasalarining pedagog xodimlariga qo'shimcha haq, "Mehnatga haq to'lashning eng kam

miqdori"ning:

- guruh rahbarligi uchun - 50 foiz;
- yozma ishlarni tekshirish uchun - 25 foiz;
- o'quv va laboratoriya kabinetlariga mudirlik uchun - 25 foiz miqdorlarda belgilanadi.

Mazkur qo'shimcha haqlar bilan bog'liq xarajatlar ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbasidan kelib chiqib, mos ravishda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanishi inobatga olinadi.

Manba: kun.uz